



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VA UY-JOY
KOMMUNAL XO'JALIGI VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Жиззах вилояти

130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov ko'chasi, 1-uy, Tel. +99878 771-70-15, Faks: +99878 771-70-15, E-mail: jizzah_expertiza@mail.ru www.ekspertiza.mc.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: Kulmuradov Yusup Baxriyevich

Sana: 09-10-2023 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 124504

Obyekt nomi «Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani Tibbiyot birlashmasiga qarashli 23-sonli oilaviy poliklinika binosining (tom qismi, issiqlik tizimini, pol qismini ta'mirlash hamda suv va kanalizatsiya, eshik romlarini almashtirish va zamonaviy tipda ta'mirlash)»

Buyurtmachi - Sharof Rashidov tumani Tibbiyot birlashmasi

Bosh loyihachi - "KOMFORD LIDER KAPITAL" MCHJ

Litsenziya 21.04.2020 yil AL-000676 O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal vazirligi

Moliyalashtirish manbai - Mahalliy byudjet

Bosh pudratchi - Tanlov asosida

Qurilish turi Mukammal ta'mirlash (kapremont)

Murojaat raqami: № 116113

1. Loyihalash uchun asos

- 1.1. Sharof Rashidov tumani xokimining 2023 yil 1 iyundagi VI-48-87-3-46-K/23-sonli qarori.
- 1.2. Sharof Rashidov tumani Tibbiyot birlashmasi tomonidan 28.07.2023 yilda tasdiqlangan "Loyiha topshirig'i";
- 1.3. Sharof Rashidov tumani Tibbiyot birlashmasi tomonidan 14.09.2023-yilda tasdiqlangan "Nuqsonlar dalolatnomasi";
- 1.4. Loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiq bo'yicha buyurtmachi tashkilot Sharof Rashidov tumani Tibbiyot birlashmasi va loyiha tashkiloti "KOMFORT LIDER KAPITAL" MChJ o'rtasida 09.08.2023 yilda tuzilgan 44455-sonli shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

- 2.1. "KOMFORT LIDER KAPITAL" MCHJ ning "Shaffof qurilish" MAT orqali 18.09.2023 yildagi 116113-sonli murojaati.
- 2.2. Sharof Rashidov tumani Tibbiyot birlashmasining 12.09.2023 yildagi № 565-sonli xati.
- 2.3. Tasdiqlangan "Nuqsonlar dalolatnomasi";
- 2.4. Ishchi chizma. Smeta xujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani Tibbiyot birlashmasiga qarashli 23-sonli oilaviy poliklinika binosining tom qismi, issiqlik tizimini, pol qismini ta'mirlash hamda suv va kanalizatsiya, eshik romlarini almashtirish, tashqi va ichki pardoqlash ishlari, pandus, kozirok o'rnatish, binoga kirish qismini ta'mirlash, ikki ochkoli xojatxona qurish, 8 m³ li yomkost o'rnatish, dezilni generator uchun naves o'rnatish, Teplopunkt qurish va yengil beton to'siqlar o'rnatish, metal panjaralar va metal eshiklar o'rnatish va boshqa qo'shimcha ish turlarini bajarish loyiha-smeta hujjatlarida ko'zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

4.1. Isitish va shamollatish.

Issiqlik manbayi KV-T/Gn 30 vertikal suvli isitish qozoni. Asosiy yoqilgi turi gaz. Isitish qozoni soni 1 dona. Bir dona isitish qozonining quvvati 30kVt

Binoga talab etilgan issiqlik quvvati 25.73kVt.

Isitish tizimi ikki quvurli vertikal va gorizontal bo'lib pol ustiga yotqizilgan.

Isitish tizimining quvurlari va armaturalari PPRC va temir po'lat turdagi quvurlardan qilingan.

Isitish asboblari bimetall radiator. Bir dona radiator qovkrg'asining quvvati 166Vt.

Bino honalarida devor tirqishlari orqali tabiiy shamollatish tizimi ko'zda tutilgan.

4.2. Suv ta'minoti.

Ichimlik suvi ta'minoti tizimining kirish va ichki tarmoqlari GOST 3262-80 bo'yicha Ø50mm va polipropilen quvurlar Ø40...20mm quvurlardan foydalanilgan. Binoning devorlari bo'ylab yopiq tarzda yotqizilgan.

Issiq suv ta'minoti isitish tizimi elektr suv isitgichlardan Haroratni +37 ° dan past bo'lmagan va +60 ° dan yuqori bo'lmagan haroratda ushlab turish uchun termal mikserlar o'rnatiladi.

Tashqi sovuq suv mavjud suv tarmog'idan ulash bilan xal etiladi. Binonig kirish qismiga plastik suv yomkosti o'rnatiladi.

Kanalizatsiya ichki maishiy kanalizatsiya tarmoqlari K1 bosimsiz plastik quvurlardan tayyorlangan

GOST 22689-2014 bo'yicha Ø50-100mm. Kanalizatsiya quvurlari pol ostida yashiringan.

Barcha sanitariya moslamalari gidravlik klapanlar bilan jihozlangan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Buyurtmachi ob'yekt smeta xujjatlarini tasdiqlashdan oldin barcha mutasaddi va tegishli tashkilotlar bilan kelishishi lozim.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Smeta hujjatlari ekspertiza ko'rigiga buyurtmachining e'tirozlarisiz taqdim qilindi.

6.2. Ob'ektning qurilish narxi "Qurilish iqtisodiyoti instituti" MChJ tomonidan ishlab chiqilayotgan joriy narxdagi kataloglar va amaldagi (haqiqiy, bozor sharoitlariga ko'ra) narxlarni xisobga olgan holda ishlab chiqilgan va ekspertizaga taqdim qilingan.

Buyurtmachi tomonidan smeta qiymati buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz va 12% QQS bilan birga **1 278 720,620** ming so'm taqdim etilgan. Smeta hujjatlarini o'rganish jarayonida ba'zi qurilish materiallari narxi, mashina mexanizm narxi pasaytirilishi, ish turlarining amaldagi qurilish me'yorlari va qoidalari asosida hisoblanishi xisobiga - **106 278,933** ming so'mga kamaytirildi.

Ekspertiza natijalarini xisobga olgan holda **“Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani Tibbiyot birlashmasiga qarashli 23-sonli oilaviy poliklinika binosining (tom qismi, issiqlik tizimini, pol qismini ta'mirlash hamda suv va kanalizatsiya, eshik romlarini almashtirish va zamonaviy tipda ta'mirlash)”** ob'ekti bo'yicha tayyorlangan smeta hujjatlarini kelgusida ko'rib chiqish hamda kelishish uchun 12 % QQS bilan xisoblaganda umumiy miqdorda **1 172 441,687** ming so'm tavsiya etiladi.

Shu jumladan:

- qurilish montaj ishlari (QMI) – **927 501,711** ming so'mni;
- jihoz, mebel va inventar tashish xarajatlari bilan birgalikda – **115 982,076** ming so'mni;
- qurilish vaqtida qurilish obektini sug'urtalashga sarflangan xarajatlar(0,32%) – **3 339,148** ming so'mni;
- qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) 12% – **125 618,752** ming so'mni tashkil etgan.
- umumlashtirilgan smeta hisobida ishchi-quruvchilar mehnat sarfi miqdori **8 433,34** kishi/soat tashkil etilgan.
- buyurtmachining boshqa xarajatlari narxi smetaga kiritilmaganligi sababli ko'rsatilmadi.

Ishchi quruvchilarning o'rtacha bir soatlik ish xaqi “Qurilish iqtisodiyoti instituti” MChJ chiqarayotgan 2023-yil II chorak(kvartal) katalog asosida **16 539,65 x 1,12 = 18 524,408** so'm ijtimoiy sug'urtaga ajratma 12 % qabul qilingan. (Ijtimoiy sug'urtaga ajratma foizi pudratchining haqiqiy harajatlari bo'yicha buxgalteriya hujjatlari asosida amalga oshiriladi).

Ta'kidlash joizki:

a)Buyurtmachiga loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin quyidagilarni qayta ko'rib chiqish tavsiya etiladi:

- pudratchi boshqa xarajatlarning aniq sarfi;

“Qurilishning bahosini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash qoidolari” ShNK 4.01.16-09 asosida qurilish materiallari (buyumlar, konstruksiyalar) va uskunalarning ishlab chiqaruvchi zavodlarning ulgurji narxlarini o'z ichiga olgan hududiy bozorda haqiqatda shakllangan narxlari, shuningdek bevosita ishlab chiqaruvchilardan (etkazib beruvchi), qurilish materiallari birja va yarmarkalarining byulletenlari, qurilish materiallari va uskunolari yetkazib beruvchi tashkilotlarning narxlarining eng maqbullaridan olinishini;

ish haqi xarajatlarning pudratchi tashkilotning o'tgan 12 oydagi o'rtacha oylik ish haqi darajasidan kelib chiqqan holda bir odam/soat ish haqidan olinganligi.

6.3. Yakuniy harajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

6.4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003-yildagi №261 qarori bilan tasdiqlangan “Qurilish ob'ektlari narxini joriy shartnoma narxlarida aniqlash tartibi to'g'risida vaqtinchalik qoidalar”ga va ShNK 4.01.16.09 ga binoan qurilishning narxi tavsiyaviydir. Tavsiya etilgan bahoni qabul qilish qarorini buyurtmachi va pudratchi birgalikda qabul qiladilar (ShNQ4.01.16-09, 6-bob. 6.4 -bandi).

6.5. O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi 4-bob 23,24,25-moddalari xamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 17.09.2021 yildagi №579-sonli qarorining 4-bandiga asosan "Qurilishi markazlashtirilgan manba'lar hisobiga moliyalashtiriladigan ob'ektlarning boshlang'ich qiymati Davlat statistika qo'mitasi rasmiy saytiga (stat.uz) joylashtirib boriladigan qurilish materiallarining joriy narxlari, mashina va mexanizimlar xizmati uchun o'rtacha narxlar hamda o'rtacha ish haqi qo'rsatgichlaridan foydalangan xolda shakllantiriladi" xamda mazkur qarorning 1-ilova 3-bob 29-bandiga asosan "Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaxarsozlik xujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlari bo'yicha buyurtmachi xamda loyiha tashkiloti javobgardir".

6.6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.01.2016 yildagi №15 sonli karorining II bo'lim 8-bandiga muvofiq «Davlat ekspertizasi ko'rigiga taqdim etilgan shaxarsozlik xujjatlari sifati bo'yicha javobgarlik buyurtmachi (loyixalash jarayonida taqdim etilgan boshlang'ich ma'lumotlari ishonchliligi nuqtai nazaridan) va loyixachi (qabul qilingan loyixa yechimlari nuqtai nazaridan) zimmasiga yuklanadi.

6.7. Buyurtmachi bajarilgan ishlar uchun pudratchiga o'zaro hisob-kitob qilishda smeta hujjatlarida loyihachi tomonidan qabul qilingan o'rtacha bir soatlik ish xaqi(kishi/soat) ko'rsatkichi - **18 524,408** so'm, pudratchining "boshqa xarajatlari" **18,58%** ko'rsatkichi, 1 mash/soat ko'rsatkichlari va qurilish materiallari va uskuna (jihoz)lar narxlari to'g'ridan to'g'ri qabul qilish tavsiya etilmaydi hamda buyurtmachiga loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin yuqoridagilarni qayta ko'rib chiqib qaror qabul qilish tavsiya etiladi (ShNQ 4.01.16-09. 6-bob).

6.8. Jixoz, mebel va inventar tashish xarajatlari bilan birgalikdagi 12% QQS va byurtmachining boshqa xarajatlarisiz **130 315,605** ming so'mni tashkil etib, ushbu mablag'ning aniq sarfini buyurtmachiga qayta ko'rib chiqish tavsiya etiladi.

6.9. Tasdiqlangan Nuqsonlar dalolatnomasi xaqqoniyligi va ishonchliligiga javobgarlik buyurtmachi va loyihachi tashkilot zimmasiga yuklatiladi. Ushbu xujjatlarni byurtmachi qayta ko'rib chiqish tavsiya qilinadi.

6.10. Taqdim qilingan lokal hulosaga javob hujjatining xaqqoniyligi, sifati va ishonchliligi uchun buyurtmachi xamda loyixa tashkiloti javobgardir.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini xisobga olgan holda **“Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani Tibbiyot birlashmasiga qarashli 23-sonli oilaviy poliklinika binosining (tom qismi, issiqlik tizimini, pol qismini ta`mirlash hamda suv va kanalizatsiya, eshik romlarini almashtirish va zamonaviy tipda ta`mirlash)”** loyiha – smeta hujjatlari kelgusida ko'rib chiqish va kelishishga uchun tavsiya etiladi.

Bosh mutaxassis: MURODULLAYEV SHOKIR XAYRULLAYEVICH

Ishtirokchi ekspertlar:

NORMURODOV SHAXBOZ DIYOR O'G'LI

Abduramanov Nazim Sheyxmambetovich

AMONOV JAVOXIR MUXAMMADJON O'G'LI

AXMEDOV ABDULLAJON AKMAL O'G'LI

Договор_№1853866_национальный_магазин [Faylni ko'rish](#)